

**СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
4 ЖИЛД, 1 СОН**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 4, НОМЕР 1**

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
VOLUME 4, ISSUE 1**



Бош муҳаррир:

Холбеков Муҳаммадҷон

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Тўхтасинов Илҳом

ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

Тахрир хайъати:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек

масъул котиб, доцент (Ўзбекистон)

Главный редактор:

Холбеков Муҳаммадҷон

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Тухтасинов Илҳом

к.ф.н., доцент (Ўзбекистон)

Редакционная коллегия:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабоев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек

отв. секретарь, доцент (Ўзбекистон)

Editor in Chief:

Kholbekov Muhammadjan

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

Tuhtasinov Ilhom

Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

Editorial Board:

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. sci., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. sci., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. sci., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. sci., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. sci. (Georgia)

Yusupov Oybek

Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

Адабиётшунослик

1. Rahmonqulova Zarnigor

DISTOPIK EKZISTENSIALIZMNI INGLIZ YOZUVCHISI UILYAM GOLDINGNING "LORD OF THE FLIES" ROMANIDA AKS ETISHI.....6

2. Усманова Севара

ЧЎЛПОН ВА С.РИЧАРДСОН РОМАНЛАРИДА БАДИИЯТ МУАММОЛАРИ.....14

3. Yusupova Dildora

SHOIR SO‘Z AYTGANI KELAR DUNYOGA...(Shoira Halima Xudoyberdiyevaning hayot va ijod yo‘liga chizgilar).....21

4. Қўчқорова Садоқат

ФОЛЬКЛОРДА ЭРТАКНИНГ ЖАНР СИФАТИДАГИ ХУСУСИЯТИ.....28

5. Мажитова Сабоҳат, Ярашов Шариф

АМИР ХУСРАВ ДЕҲЛАВИЙ ВА АБДУРАҲМОН ЖОМИЙ ҒАЗАЛЛАРИДА «ДИЛ» (ЮРАК, ҚАЛБ) ТИМСОЛИНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК МАЙДОНИ.....35

6. Джалилова Зарнигор

ИНГЛИЗ ШЕЪРИЯТИДА ИНСОН СИФАТЛАРИНИНГ ГУЛЛАР ТИМСОЛИДА ИФОДАЛАНИШИ.....42

Лингводидактика

7. Khamzaev Sobir, Gilyazetdinov Eldar

THE PRINCIPLES OF SPEAKING SKILLS' FORMATION AMONG STUDENTS OF LINGUISTIC UNIVERSITIES.....48

Тилшунослик

8. Boygucheva Lola

THE ROLE OF DISCOURSE ANALYSIS IN MODERN LINGUISTIC THEORY.....54

9. Кобилова Азиза

ШИФОБАХШ ЎСИМЛИКЛАР ЎРНИДА ИШЛАТИЛАДИГАН ПЕРИФРАЗЛАР ТАҲЛИЛИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА).....59

10. Mamanazarova Gulhayo, Paluanova Halifa

ISSUES ON OIL AND GAS TERMINOLOGY IN LINGUISTICS.....65

11. Melikova Elnora, Abdullayeva Nargiza

PRIMARY AND SECONDARY PREDICATION.....71

12. Saidova Farida

O‘ZBEK TILI LEKSIK SINONIMLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI.....77

13. Turniyazov Behzod

FAKTIVLIK ASOSIDAGI KAUZATSIYA.....83


14. Гафуров Бахтиёр АНАЛИЗ ЛИНГВОСТАТИСТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ АКЦЕНТНЫХ ФОНОВАРИАНТОВ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	91
15. Ибаев Анвар КОМПАРАТИВ СИНТАКТИК ҚУРИЛМАЛАР ТИЛШУНОСЛИКНИНГ ЎРГАНИЛИШ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА.....	97
16. Исмаилов Тургун ПРЕЗИДЕНТ ДИСКУРСИДА HOMELAND КОНЦЕПТИНИНГ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ОРҚАЛИ ТАСАВВУР ЭТИЛИШИ (FREEDOM, LIBERTY ҚАДРИЯТИ МИСОЛИДА).....	103
17. Камолитдинова Вазира ОКСЮМОРОН ВА УНИНГ УСЛУБИЙ - СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ.....	111
18. Нигматова Лолахон ЎЗБЕК ТИЛИ МАХСУС КОРПУСЛАРИ – ТИЛ ВА МАДАНИЯТ МУШТАРАКЛИГИНИ ЎРГАНИШ ВОСИТАСИ.....	116
19. Сабирова Ёъзоа ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТЛАРИДА ЎЗЛАШМА ЮРИДИК ТЕРМИНЛАР ТАЛҚИНИ.....	121
20. Сулаймонова Нигора ЗАМАХШАРИЙ ГЎЗАЛ НУТҚ ВА САБР ОДОБИ ҲАҚИДА.....	130
21. Тўева Зулфия, Юлдашева Дилором БАЁН ВА УНИНГ ТУРЛАРИ ҲАҚИДА.....	137
22. Xolova Muyassar BOYSUN SHEVASI ONLAYN MA'LUMOTLAR BAZASI (QIDIRISH VA SARALASH IMKONIYATLARI ASOSIDA).....	146
23. Abdullayeva Oqila Holmo'minovna O'ZBEK TILI KORPUSINI YARATISH BOSQICHLARI VA MUAMMOLI JHATLARI....	153
24. Abdunazarova Zarina Islomovna THE FORMATION OF SPEECH COMPETENCE.....	146
25. Nilufar Abduraxmonova O'ZBEK TILI KORPUSINI YARATISHDA LINGVISTIK ANNOTATSIYALASH TAMOIILLARI.....	164
26. Shamuradova Naima O'ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARINING QIYOSIY O'RGANILISHI HAQIDA (ASOSIY QISMLARINI QO'LLASH).....	171
27. Яхёева Гулнора Бахтиёровна ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ.....	175

28. Irgasheva Umida INGLIZ TILI DARSLARIDA TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYALAR AHAMIYATI.....	179
29. Jumaniyozova Nuriya Axmedovna YURIDIK DISKURS LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA.....	184
30. Khayitova Feruza Abdikhalikovna THE PRACTICAL ANALYSIS OF TOPONYMS IN GREAT BRITAIN BASED ON THE STORY OF A. CONAN DOYLE "THE HOUND OF THE BASKERVILLES".....	188
31. Z. Masodiqova, Sh. Xatamqulova O'ZBEK VA NEMIS MAQOLLARINI QIYOSHLASH.....	193
32. Teshaboyev Dilmurod Rahmadjonovich, Axmadjonova Mohinur Bahodirovna SON SO'Z TURKUMINING BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARIDA IFODALANGAN SHAKLLARINI AKT ORQALI TUSHUNTIRISH.....	193
33. Maxmurova Mavjuda Halimovna METAFORALAR NUTQ SHAKLI SIFATIDA.....	204
34. Nazarov Rustam Irkinovich THE IMPORTANCE OF PAIR WORK AND GROUP WORK ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH IN TECHNICAL UNIVERSITIES.....	210
35. Saidbekova Raykhona Rustambekovna, Ruzmatova Dilnoza Ramatjonova FAMILY PERSPECTIVES IN THE NOVEL "AND THE MOUNTAIN ENCHOED" BY KHALED HUSSEINI.....	217
36. Алижон Раҳматович Қосимов, Хумора Муҳаммадиса қизи Иминова ТИЛНИНГ БИОПСИХОСОЦИАЛ ОНТОЛОГИК МАҚОМИ МУАММОЛАРИ.....	222

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Xolova Muyassar Abdulhakimovna
o'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi
Termiz davlat universiteti
Termiz, O'zbekiston
E-mail: xolovam@tersu.uz

BOYSUN SHEVASI ONLAYN MA'LUMOTLAR BAZASI (QIDIRISH VA SARALASH IMKONIYATLARI ASOSIDA)

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-1-22>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dialekt ijtimoiy aloqa vositasi sifatida uning ichki qonuniyatlardan kelib chiqib tadqiq etilishi mumkinligi aytib o'tiladi va buning uchun til tarkibidagi shevalarni yagona korpus tarkibiga kiritish masalasi qo'yiladi.

O'zbek milliy tilidagi shevalarning saqlanib qolishi uchun ma'lum bir yechimlar taklif etiladi hamda bu uchun shevalarning internet tizimidagi o'rni masalasiga to'xtab o'tiladi. Jahon dialektologik bazalarni kuzatgan holda o'zbek milliy shevashunosligida o'ziga xos bo'lgan shevalar bazasini yaratish bo'yicha tadqiqotchining fikrlari o'rtaga tashlanadi. Ayni shu tadqiqot doirasida qilingan ishlar: o'zbek shevalar bazasining interfeysi va shevashunoslikda o'tkazilishi mumkin bo'lgan tadqiqot amaliyot maydonlarining tayyorlanishi haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Boysun shevalar bazasida: adabiy til, transliteratsiya, transkripsiya, turkum, izoh, sinonim, omonim, antonym, o'zlashgan qatlam, rus tiliga tarjima, ingliz tiliga tarjima kabi tadqiqotlar maydoni haqida qisqa ma'lumotlar berigan va ayni shu tarzda olib borilgan ishlar tadqiqotlarni jahon miqyosiga olib chiqishi mumkinligi ta'kidlangan

Kalit so'z: Boysun shevalar bazasi, adabiy til, transliteratsiya, transkripsiya, turkum, izoh, sinonim, omonim, antonym, o'zlashgan qatlam, rus tili, ingliz tili, tarjima, o'zbek milliy korpusi, shevalar bazasining interfeysi

Холова Муяссар Абдулхакимовна
Преподаватель кафедры языкознания Узбекского языка
Термезского Государственного Университета,
Термезб Узбекистан
E-mail: xolovam@tersu.uz

ОНЛАЙН БАЗА ДАННЫХ – БАЙСУНСКИХ ГОВОРОВ (НА ОСНОВЕ ПОИСКА И СОРТИРОВКИ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье предлагается, что диалект как средство общения может быть исследован исходя из его внутренних закономерностей, и для этого ставится вопрос о включении в состав единого корпуса языковых говоров. Для сохранения говоров узбекского

национального языка предлагаются определенные решения и для этого стоит остановиться на вопросе о роли диалектов в системе интернет. По наблюдению за мировыми диалектологическими базами выдвигаются мнения исследователя о создании своеобразной диалектологической базы в узбекском национальном диалектологии. Исследователь дал краткий обзор области исследований, таких как: стандартный язык, транслитерация, транскрипция, категория, толкование, синонимы омонимы антонимы, генезис, перевод на русский, перевод на английский проведенные действия в рамках данного исследования. Было подчеркнуто, что исследования, проведенные таким образом, могут вывести исследования на мировой уровень

Ключевые слова: Байсунский диалектнй база, стандартный язык, транслитерация, транскрипция, категории, толкование синоним, амоним, антоним, генезис русский, английский, перевод, узбекский национальный корпус, диалектнй интерфейс базы данных

Kholova Muyassar Abdulhakimovna

Lecturer at the Department of Uzbek Linguistics,
Termez State University,
Termez, Uzbekistan
E-mail: xolovam@tersu.uz

ONLINE DATABASE-BAISUN DIALECTS (BASED ON SEARCH AND SORTING)

RESUME

This article suggests that the dialect as a means of communication can be studied based on its internal laws, and for this purpose the question of including in the unified corpus of language dialects is raised. To preserve the dialects of the Uzbek national language, certain solutions are proposed, and for this purpose it is worth focusing on the role of dialects in the Internet system. According to the observation of world dialectological bases, the researcher's opinions on the creation of a kind of dialectological base in the Uzbek national dialectology are put forward. The researcher gave a brief overview of the research area, such as: standard language, transliteration, transcription, category, interpretation, synonyms homonyms antonyms, Genesis, translation into Russian, translation into English actions performed within the framework of this study. It was emphasized that research conducted in this way can bring research to the world level

Keywords: Baysun dialect database, standard language, transliteration, transcription, categories, interpretation, synonym, amonym, antonym, Genesis, Russian, English, translation, Uzbek national corpus, dialect database interface

KIRISH

Hozirgi kunlarda zamonaviy lingvistikada ishlab chiqqan usullar bilan istalgan dialekt ijtimoiy aloqa vositasi sifatida uning ichki qonuniyatlardan kelib chiqib tadqiq etilishi mumkinligini ta'kidlanadi .

O'zbek dialektologiyasida sheva, lahja va dialekt atamalari ma'nosi izohida farqlilik mavjud: Sheva – biror tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lgan eng kichik qismi; lahja - fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni o'zida jamlagan shevalar yigindisi[1, B.16]; dialekt - ilmiy adabiyotlarda har ikki ma'noda qo'llanadi .

So'nggi yillarda tilshunoslikda ham boshqa fanlarda bo'lganiday ikki fanning kesishuvlari oraligidagi fanlar rivojlanmoqda. Masalan, psixolingvistika (psixologiya + lingvistika), sotsiolingvistika (sotsiologiya + lingvistika), etnolingvistika (etnografiya + lingvistika) kabilar aynan shunday fanlar sirasiga kiradi. Kompyuter lingvistikasi ayni vaqtda kompyuter va lingvistika fanining uyg'unlashuvidan tashkil topgan. Til korpuslarining asta-sekin paydo bo'lishi ham xuddi shu qarashlardan o'sib chiqqan yo'nalishlardan biridir.

Ayni kunda qishloq infratuzilmalaridagi o'zgarishlar aholi tiliga ta'sir etayotgani, ommaviy-axborot vositalari, telefon, internet kabilar orqali etnik aholi tilidagi shevaning sayqallanayotganligi,

adabiy tilning asta-sekin shevani siqib chiqarayotganligi shevashunos olimlar, umuman, o'zbek tilshunosligi oldiga mavjud keksa avlod tilida saqlanib turgan shevalarning va ho'zirga qadar shaxsiy kutubxonalarda saqlanayotgan dialektal ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan yagona dialektologik bazani tuzishni dolzarb masala sifatida ko'ndalang qo'yadi.

Tadqiqotimiz doirasida jahon dialektologik bazalari Boshqird dialektal mashina fondi[12], Rus lingvistik ma'lumotlar bazasi[5], Rus xalqi shevari elektron bazasi (Электронные базы данных по русским народным говорам)[17], Rus xalqi shevalarining elektron kutubxonasi (Электронная библиотека русских народных говоров)[18] kabi sheva bazalarini kuzatdik, ularning ishlash prinsiplari bilan tanishib chiqdik. Unga ko'ra, Boshqird shevasi ma'lumotlar bazasi mualliflaridan biri prof. Zinnur A. Sirazitdinov dialektal bazalarni shakllantirishda:

-leksikologik baza;

-dialektologik xaritalar bazasi;

-matnlar bazasini taklif etadi[12]. Leksikologik bazada sheva leksikalari differensial prinsiplar asosida, maxsus so'zlik lug'atiga ega ekanliklari ta'kidlangan.

Dialektologik bazaning ma'lumotlar omborini to'ldirib borish uchun dialektal lug'atlar ustida ish olib boriladi (52 000 dialektik birlikni o'z ichiga olgan Boshqird dialekti)[12]. Lug'atda maxsus shevaga xos so'zlar bilan fonetik, semantik va morfologik dialektizmlar ham joy oladi. Ma'lumotlar omboridan foydalanish va qidirish boshqird korpusiga asoslangan holda quyidagi maydonlarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. shevaga oid so'z
2. so'z turkumi
3. dialekt
4. sheva
5. adabiy me'yor
6. rus tiliga tarjima
7. ingliz tiliga tarjima

Masalan: imən barmak – isem, мөнъяк-көнбауыш dialekti, тапыр hoyləshe, hik barmak, ukazateľныу palets[12]; Tajxar [dialektal so'z] – ot [so'z turkumi], qipchoq dialekti [dialekt], Boysun shevasi (Kolqamish, Xojabulgon) [sheva], xachir [adabiy me'yor], osyol [rus tiliga tarjima].

Bazada qidiruv tizimi ayni shu yetti maydonda bajarilib, qatorlardagi shevaga oid so'z, adabiy me'yor, rus tiliga tarjima qilingan birliklar orqali beriladigan sorov faqat leksemalar bazasi holatida murojaat qilinadi. So'rovnomani quyidagi tarzda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

-aniq dialektal so'z kiritish vositasida;

-gap boshida kelgan kelgan dialektal so'zni kiritish orqali;

-gap oxirida kelgan kelgan dialektal so'zni kiritish orqali;

-gapning istalgan qismida kelgan mos keluvchi so'zni kiritish orqali.

Bir so'zni turli xil yo'l bilan so'rovnomaga berish bazaviy manbadan keng foydalanish imkoniyatini beradi va tadqiqotchilar xulosalarning aniqligi uchun xizmat qiladi. Boshqird dialektida xonqizi (kamka)ning 148ta dialekt variantlarini berib otadi, shulardan 17 varianti faqat sharq dialektlari tarkibida uchraydi.

ASOSIY QISM

Biz Boysun onlayn shevalar bazamizni shakllantirishda ushbu masalaga har bir tilning o'z sheva strukturasi kelib chiqib yondash kerakligini ta'kidlab o'tamiz.

Shevalar bazasining interfeysi. Interfeys - (ing. pIyeggase) so'zidan olingan bo'lib, texnik va programmalash vositalari yig'ilmasi hisoblanib, boshqarish yoki o'lchash, hisoblashdagi turli vazifaviy qurilmalarning o'zaro ta'sirini ta'minlab beradi[6]. Berilayotgan axborotlarni kodlash, sinxronlash hamda nisbatan belgilangan qoida hamda kelishuvga muvofiq tayyor modullardan sistemani, qurilmalarning mexanik va elektr birikmalarini signal, yani axborot shaklida to'plashga imkon beradi[16]. Korpusni loyihalash jarayonida birinchi navbatda uning dizayni bilan shug'ullanish muallifdan katta e'tibor talab etadi, Masalan, Boysun sheva bazasi interfeysi dizayni foydalanuvchida katta taassurot qoldirishi uchun aynan shevaga xos bo'lgan, milliy o'zlikni ifodalovchi oynani qo'llashni talab etadi. Milliylikni ko'rsatib beruvchi suratlar (masalan, o'tov,

milliy kiyim-bosh, bezaklar, an’ana va udumlarni aks ettirgan lavhalar)dan foydalanish, o’ziga xoslik qishloq hayotini aks ettiruvchi belgilardan birining bo’lishi korpusda muhim omillardan hisoblanadi.

Shevalar bazasining taqdimoti. Bugungi kunda juda ko’plab jahon miqyosidagi tillar o’z shevalariga oid manbalar: lug’atlar, dialektologik atlaslar, shevalarning fonetik, leksik-grammatik tahlil va tadqiq natijalari, butun bir filologik ma’lumotlarni elektron formatga o’tkazish jarayonlarini boshladilar[12]. Milliy til va uning shevalarini information dunyoga olib chiqish yangi tadqiqotlar uchun zamin bo’lib xizmat qiladi. Bu nafaqat tilshunoslik, balki va shevashunos tadqiqotchilar oldida turgan masalaning yechimi shevalarni bir tizimga olgan korpuslarni yarata olishdir. Buning uchun birinchi qadam o’zbek milliy shevalarini yagona tizimga olgan ma’lumotlar bazasini tuzishdir. Tadqiqotimiz doirasidagi shevaga oid ma’lumotlar bazasidagi lingvistik tahlillar[3] bir necha bosqich va prinsiplarga asoslangan holda tuzildi. Dastlabki shevalar bazasi quyidagi talablar asosiga qurish maqsad qilindi:

1-Jadval.

Sheva bazasi:

1. Adabiy til	Ushbu yo’zuvlardan birini yo’zganda ham uchala shaklga murojaat sifatida tushunilishi kerak
2. Transliteratsiya	
3. Transkripsiya	
4. Turkum	Statistikasi kerak
5. rus tili	
6. ingliz tili	
7. izoh.	
8. Sinonim	Sinonim orqali bir-biri ko’rsatish imkoniyati berilishi kerak
9. Omonim	
10. Antonim	
11. O’zlashgan qatlam	Fors, arab, mo’g’ul va boshqa tillardab o’zlashgan so’zlarning statistikasini ko’rsatish.

Shevalar bazasiga kiritilgan sheva birligining bir xilligini oldini olish uchun so’zning oldin kiritilganligi haqida ogohlantirish qo’yilishi kerak[21].

2-Jadval.

Sheva bazasi:

1. Adabiy til	og’iz
2. Transliteratsiya	Avuz
3. Transkripsiya	Ävüz
4. turkum	Ot
5. izoh.	Ikki jag’ o’rtasidagi ovo’z va yeyish uchun mo’ljallangan bo’shliq
6. Sinonim	Mavjud emas.
7. Omonim	O’giz I- ad t. sigirning birinchi suti
8. Antonim	
9. O’z yoki o’zlashgan qatlam	O’z qatlam: o’zbek tili
10. rus tili	Por
11. ingliz tili	Mouth

Boysun shevalar elektron lug’ati internetda onlayn tarzda ish yurituvchi bazalardan biri bo’lib, kunlik ma’lumotlar doirasini kengaytirishga ega bo’lgan har tomonlama qulay leksikologik dialektal bazalaridan biridir. “Onlayn shevalar bazasi (Boysun shevasi misolida)” loyihasi Termiz davlat universiteti qoshida “O’zbek shevalari korpusini tuzishning lingvistik asoslari (Boysun tumani “j”lovchi shevalar misolida)” tadqiqot doirasida tayyorlangan (dialect.uz) [21]. Leksik bazasida 10 ta maydon orqali qidiruvni amalga oshirish mumkin. Bular: adabiy til, transliteratsiya,

transkripsiya, turkum, sheva izohi, sheva qatnashgan gap tarkibi, sinonim, omonim, antonim, o'zlashgan qatlam, rus va ingliz tili tarjimalari kabilar. Ushbu lug'atning keng imkoniyatlari sifatida uning uch xil so'z shakli, so'zlik maqolasi, misollarning keltirilishidan tashqari statistik materiallardan qulay tarzda foydalanish deb ko'rsatib o'tish mumkin. Tizim bazadagi ma'lumotlar saqlangan yacheykalardagi so'zlar qidiruvi:

- ❖ shevaning adabiy tildagi so'z shaklining to'liq mosligi asosida;
- ❖ shevalarning transliteratsion shaklining to'liq mosligi asosida;
- ❖ shevaga oid birlikning transkripsion shaklining to'liq mosligi asosida;
- ❖ so'zning tasodifiyligi asosida;
- ❖ gap boshidagi so'zning bilan to'liq mosligi asosida;
- ❖ gap oxiridagi so'zning bilan to'liq mosligi asosida;
- ❖ gapning har qanday qismidagi so'zning bilan to'liq mosligi asosida;
- ❖ gap boshidagi so'z bilan qisman mosligi asosida;
- ❖ gap oxiridagi so'z bilan qisman mosligi asosida;
- ❖ gap har qanday qismidagi so'zning bilan qisman mosligi asosida;
- ❖ shevalarning sinonimlari orqali mosligi asosida;
- ❖ shevalarning omonimlari orqali mosligi asosida;
- ❖ shevalarning antonimlari orqali mosligi asosida;
- ❖ shevalarning genezisi orqali mosligi asosida;
- ❖ shevalarning rus tiliga tarjimai orqali mosligi asosida;
- ❖ shevalarning ingliz tiliga tarjimai orqali mosligi asosida olib boriladi.

Ushbu bazaga murojaat qilinganda foydalanuvchi (baza keng foydalanuvchilar auditoriyasi uchun mo'ljallangan) ga quyidagi imkoniyatlar taqdim etiladi.

1. Bosh sahifa
2. So'zlar jadvali
3. Loyiha haqida
4. Transkripsiya
5. Aloqa

1. Bosh sahifa. Ushbu sahifa yuqorida 5 sahifadan iborat bo'lib, boshqa sahifalarga yo'naltiruvchi imkoniyati bilan bir qatorda bazadagi shevaga oid so'zlarni:

I. So'z turkumlari bo'yicha umumiy tashqi (mustaqil so'z turkumi, yordamchi so'z turkumi, alohida so'z turkumi) va xususiy ichki (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, ko'makchi, bog'lovchi, undov, taqlid, modal so'zlar) statistikasini jamlab ko'rsatilgan;

II. Boysun shevasidan bazaga qo'shilgan shevaga xos so'zlar (ushbu so'zlar bazaning keng auditoriyaga mo'ljallanganligini hisobga olib, undan foydalanuvchilarga qulaylik tug'dirish maqsadida transliteratsiyada beriladi);

III. Dialektal so'zlarning etimologiyasi (fors, arab, rus tillari, rus tili orqali o'tgan ingliz, fransuz tillari) statistikasi keltirilgan.

2. So'zlar jadvali. Sahifada barcha qatorlar soni, izlash, turkum bo'yicha va shevaga xos so'zlarning etimologiya bo'yicha salarash imkoniyatlari nazariy asoslangan va shevalar quyidagicha jadvallarni o'z ichiga oladi:

- a) adabiy til
- b) transliteratsiya (shevaning lotin grafikasiga asoslangan varianti berildi);
- c) transkripsiya (mavjud jahon standartiga asoslangan yunikodlar asosida yondashuv);
- d) turkum (saralash imkoniyati bilan);
- e) izoh;
- f) misol;
- g) sinonim;
- h) omonim;
- i) antonim;
- j) o'zlashgan qatlam (saralash imkoniyati bilan);

k) boshqa tillardagi tarjimasiga (bunda shevaga oid soʻzning toʻgʻridan toʻgʻri yoki muqobil rus va ingliz tarjimasiga asoslaniladi). Shevalar bazasini yangi dialektal soʻzlar bilan toʻldirish jarayonlari oʻz qoidalari egadir.

Shevalar bazasi turkiy tilining 3 guruhiga oid boʻlgan shevalarning barchalarini oʻz ichiga olishni nazarda tutadi. Shevalar tadqiqoti doirasida koʻzda tutilgan “Onlayn shevalar bazasi (qidirish va saralash imkoniyatlari bilan)”ga Boysun shevasidan koʻproq turkiy tilning qipchoq va qarluq-uygʻur guruhlariga, qisman oʻgʻiz guruhida qoʻllanuvchi soʻzlar kiritilgan. Loyiha materiallarini tayyorlashda Rahimov S. “Oʻzbek tili Surxondaryo shevalari”[9] monografiyasi, Sh. Xolmirzayev[14] va Togʻay Murod[19] ning badiiy asarlari, Boltayev Shoberdi[15] tomonidan aytilgan dostonlar, “Oʻzbek tili izohli lugʻati”[13], “Surxondaryo oʻzbek shevalari”[10] “Attuhfatuz zakiyatu fillugʻatit turkiya (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa)”[2], N.Mirzayev “Oʻzbek tili etnografizmlarining izohli lugʻati”, “Fargʻona shevalarining kasb-hunar leksikasi”[11], Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati[4] kabi lugʻatlardan hamda <http://www.jcreview.com/fulltext/197-1587301396.pdf> [7] kabi sayt materiallardan foydalanilgan.

E. V. Paducheva[8] tadqiqotga doir lingvistik toʻplangan maʼlumotlar haqida fikr bildirish loʻzim ekan, har qanday tadqiqot misollarining koʻproq qismi lugʻatlar asosida keltirilishini, agar toʻplangan maʼlumotlarni misollar asosida yoritish imkoni boʻlmasa, toʻqima misollardan foydalanish kerakligini uqtiradi. Yuqorida keltirilgan fikrga qoʻshilgan holda, sheva faktlariga oid misollar izohida va misolida lugʻatlardan foydalanishning imkoni topilmaganda, etnik xalqning kundalik turmush tarzidan olingan misollar bilan yoritilishga harakat qilindi. Yangi soʻzlarni import qilish, yaʼni saytga joylashtirish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: 1. Taqdim etilgan namuna fayl yuklab olinadi. 2. Fayl yangi oʻzlar bilan toʻldiriladi, agar qatorlar soni yetmay qolsa, qolgan maʼlumotlar boshqa nusxaga kiritilishi kerak. 3. Adabiy til oldin kiritilgan soʻz boʻlsa, undan foydalaniladi, yangi soʻz boʻlsa, soʻzlar jadvaliga qoʻshiladi. 4. Translitteratsiya oldin kiritilgan soʻz boʻlsa, undan foydalaniladi, yangi soʻz boʻlsa sheva soʻzlar jadvaliga qoʻshiladi. 5. Transkripsiya, sheva izohi, misol, oʻzlashgan qatlam, oʻzlashgan qatlam izohi keltiriladi. 6. Translitteratsiya asosida topilgan yoki yangi qoʻshilgan sheva soʻzining kerakli ustuniga yoʻziladi. 7. Bazada barcha soʻz turkumlari kiritilib, namuna faylda roʻyxat koʻrinishida berilgan va turkum nomini oʻsha roʻyxatdan tanlash talab etiladi. 8. Sinonim va sinonim izohi sinonim uchun ajratilgan ustuniga sinonim soʻzlar “,” belgisi bilan ajratilib yozilishi kerak. Shundan soʻng sinonim -1, sinonim – 2 yacheykasiga , izohi esa keyingi yacheykaga yozilishi kerak. Shunda importdan keyin Sinonim -1 , Sinonim - 2 koʻrinishda koʻrsatiladi. 9. Omonim va antonym soʻzlar “,” belgisi bilan ajratilib kiritilishi kerak. 10. Rus tili va ingliz tilidagi tarjima soʻzlar “,” belgisi bilan ajratilib kiritilishi kerak.

Shevalar bazasi ichki dasturiy taʼminoti umumiy belgilar kodlash standarti “UTF-8[22]” da amalga oshiriladi va barcha maʼlumotlar muallif tomonida tayyorlangan Boysun shevasi[21] bazasi misolida berildi.

XULOSA. Xulosa shuki, Boysun shevalari onlayn bazasi tilshunoslik, shevasunoslikka doir jahon standartlariga javob bera oladigan bazalar sirasiga kiradi. Bazani tayyorlash Rus lingvistik maʼlumotlar bazasi, Rus xalqi shevari elektron bazasi, Boshqird dialekt bazalarining standartlaridan qisman foydalanilgan holda oʻziga xos agglutinatif til strukturasi kelib chiqib yondashildi. Shevalar bazasining interfeysi texnik va programmalash jihatidan puxta oʻylangan, turli vazifaviy qurilmalarning oʻzaro taʼsirini taʼminlab beruvchi, boshqarish yoki oʻlchash, hisoblash, axborotlarni kodlash, sinxronlash va belgilangan qoidalarga tayyor modullashgan sistemaga ega holda shakllantirildi. U qurilmalarning signalini kodlaydi va axborot shaklida toʻplashga imkon beruvchidir. Sheva bazasining dizayni undan foydalanuvchida katta taassurot qoldiradi, yaʼni milliy oʻzlikni anglatadigan, bir qarashda Boysun tumani nafaqat shevasi uning qisman yashash tarzi va kundalik-maishiy hayoti va madaniyati bilan tanishish imkonini beradi. Shevalar bazasida maʼlumotlarning lingvistik taqdimoti bir necha bosqichli tarzda shakllantirilgani milliy tilimizning dunyoga olib chiqish uchun hamda tahlil va tadqiq jarayoni uchun katta baza boʻlib xizmat qiladi. Shevalar bazasida shevaga doir soʻzning qidiruvi uch xil: adabiy, translitteratsion va transkripsion shaklda berilishi tadqiqotdagi birinchi qulaylik, boʻlsa soʻzning kontekst tarkibidagi istalgan qismdan filtrlash orqali topilishi ikkinchi qulaylik hisoblanadi. Shevalar bazasidagi maʼlumotlar

saqlangan yacheykalardagi shevaga oid soʻzning shakl va munosabatlariga koʻra turlarining akslanishi tilshunoslik leksikologiya sathida tadqiqotlar uchun qisman maʼlumotlar bazasi boʻlib xizmat qilishi mumkin. “Onlayn shevalar bazasi”ga kiritilgan shevalarning maʼnolarni ochib berishda Loyiha materiallarini tayyorlashda turli shevashunos olimlar va shu hududga tegishli boʻlgan shoir va yoʻzuvchilar asarlardan, baxshilar aytimlaridan foydalanish baza tarkibiga kirgan soʻzlarning asliy ekanligiga dalolatdir. Shevalar bazasidagi shevalar transliteratsion va taranskripsion berilishi tayyorlangan bazaviy maʼlumotlarning jahon miqyosida foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va oʻzbek tilshunosligida izohli lugʻatga solishtirgan holda tadqiqotarni amalga oshirish nazariy asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. –T.:2016.
2. Attuhfatuz zakiyatu fillugʻatit turkiya (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa). –T.:1968.
3. Bahodirovna D., Mengliev B.. Semantic Tag Categories in Corpus Linguistics: Experience and Examination International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8, Issue-3S, October 2019. – P. 208-212 (DOI: 10.35940/ijrte.C1048.1083S19)
4. Фозилов Е. таҳрири остида. А.Навий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV томлик. Т.:1983.
5. Мишанкина. Н.А. Базы данных в лингвистических исследованиях. 25-33 str. <https://cyberleninka.ru/article/n/bazy-dannyh-v-lingvisticheskikh-issledovaniyah>
6. Khamroeva Sh.M., Mengliev B. R. The authorship lexicography and authorship corpus // Материалы международной научной конференции межнаучная интеграция: лингводидактический, лингвокультурологический и психолингвистический аспекты 19-20 декабря 2019 год. Sumqayit – 2019. – С. 105-107
7. Kholova M. Transcription in the corpus of the Uzbek national Boysun dialect (on the example of Baysun district “j” dialects). Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020
8. Падучева Е. В. Высказывание и его соотносительность с действительностью (референциальные аспекты семантики ме-стоимений).М.: Едиториал УРСС, 2004. - 228 с./стр-5
9. Рахимов С. "Ўзбек тили Сурхондарё шевалари" . -Т.:1985.
10. Рахимов С. Сурхондарё ўзбек шевалари луғати. –Т.: 1995.
11. С.Иброҳимов "Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси" -Т.:1959.
12. Zinnur A. Sirazitdinov , Lily A. Buskunbaeva , Ramilya N. Karimova. Dialectological Base of the Machine Fund of the Bashkir Language as a Tool for Research Bashkir Dialect Continuum. Published in the Russian Federation Bulletin of the Kalmyk Institute for Humanities of the Russian Academy of Sciences Has been issued since 2008 ISSN: 2075-7794; E-ISSN: 2410-7670 Vol. 23, Is. 1, pp. 212–219, 2016 DOI 10.22162/2075-7794-2016-23-1-212-219 Journal homepage: <http://kigiran.com/pubs/vestnik>
13. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. V tomli. –T.:2006-2008.
14. Shukur Xolmirzayev. Oʻn sakkizga kirmagan kim bor.- T.:2015.
15. Sh.Boltayev. Malla savdogar dostoni. –T.: 2019.
16. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Interfeys>
17. http://www.ruslang.ru/krylov_dialect
18. <http://dialekt.corpus.tatar/>
19. http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_remository&Itemid=57&func=fileinfo&id=5/
20. https://pgu.ru/editions/un_reading/detail.php?SECTION_ID=3052&ELEMENT_ID=22486
21. <https://dialect.uz/>
22. <https://i.voenmeh.ru/kafi5/Kam.loc/inform/UTF-8.htm>

СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
4 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 4, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
VOLUME 4, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000